XORAZM VILOYATI XONQA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 27-oktabr | 312-12-175-Q/25 | Xonqa tuman hokimligi

2026-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Xonqa tumanida 2026-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining eng kam soni belgilansin. Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 13 ta ish o‘rni;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 37 ta ish o‘rni;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0 ta ish o‘rni;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 7 ta ish o‘rni;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 0 ta ish o‘rni;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 1 ta ish o‘rni;

odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0 ta ish o‘rni;

atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 0 ta ish o‘rni;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayollar uchun 2 ta ish o‘rni belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya va gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun — bolalarni tarbiyalash majburiyatlari va mehnat majburiyatlari bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan hamda “Mehribonlik” uylari bitiruvchilari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga hamda mutaxassisligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilganlar uchun ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun — mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga sog‘lig‘ining holatini hamda mehnat faoliyatiga doir belgilangan qarshi ko‘rsatmalar hisobga olingan holda mehnat majburiyatlarini moneliksiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari.

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki, maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki, sud qaroriga koʻra oʻziga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari xarakterli talablarga muvofiq boʻlgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish oʻrinlari tashkil qilinsin.

4. Tashkilotlar rahbarlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarga koʻrsatilgan ish oʻrinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash haqida”gi (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda roʻyxatga olingan, roʻyxat raqami 3 163) buyrugʻiga asosan subsidiya ajratib berish tartibi boʻyicha ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq toʻlash belgilanganligi inobatga olinsin.

6. Ushbu qarorning ikkinchi ilovasida koʻrsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar tashkil qilinsin.

7. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish boʻyicha mazkur qaror ijrosini bajarmagan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mansabdor shaxslariga O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga koʻra ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

8. Xonqa tumani Kambag ‘allikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi besh kun muddatda ushbu qarorni 1-ilovasida koʻrsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

9. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan Xonqa tumani hokimining 2024-yil 31-oktabrdagi 406-12-175-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Xonqa tumani hokimining axborot xizmati boshlig‘i Sh.Xo‘janiyozov mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

11. Ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy nashri hisoblangan “Xonqa hayoti” gazetasida e’lon qilinsin.

12. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Sapayev, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i U.Sh.Yaxshibayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.Davlatov**

Xonqa tumani hokimining
2025-yil 27-oktabrdagi
312-12-175-Q/25-son qaroriga
1-ilova

2026-yilda Xonqa tumani boʻyicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlari toʻgʻrisida M A ʻ L U M O T

№	"Ijtimoiy muxofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar roʻyxati" (korxona va tashkilotlarning nomi)	Korxona-ning STIR raqami	Shtat jadvali boʻyicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qoʻyish taklif etilayotgan ish oʻrinlari soni	shu jumladan:								
					14 yoshgacha va nogiron bolalari boʻlgan, yolgʻiz va koʻp bolali ota-onalar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʻlim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega boʻlgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy taʻlim tashkilotlarining davlat grantlari boʻyicha taʻlim olgan bitiruvchilari	Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qoʻshinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun band	Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tugʻdirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlari soni	oilaviy (maishiy) zoʻravonlik natijasida jabrlangan ayollar

							qilingan ish oʻrinlari soni						
1	Xonqa tumani tibbiyot birlashmasi	200429599	2602	5	1	2		1					1
2	Xonqa tumani hokimligi huzuridagi obodonlashtirish boshqarmasi	206945095	295	3		1				1			1
3	40 son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315256	203	3	1	1		1					
4	37- son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203274522	188	3		3							

5	22-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203314978	183	3	1	1		1					
6	35-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315232	165	3		2		1					
7	36-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315249	150	3	1	1		1					
8	38-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315059	139	3	1	2							
9	10-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315074	139	3		2		1					
10	19-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315138	126	3	1	2							
11	41-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203314922	125	3		2		1					
12	13-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315106	112	2	1	1							
13	29-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315184	108	2		2							
14	18-son umumiy oʻrta taʻlim maktabi	203315121	104	2	1	1							
15	35-son maktabgacha taʻlim tashkiloti	207086072	90	2	1	1							

16	21-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207029996	76	2		2							
17	7-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207097154	74	2	1	1							
18	24-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207086001	71	2	1	1							
19	50-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207029989	64	2		2							
20	38-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	305567303	62	2	1	1							
21	32-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	305567294	60	2		2							
22	39-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207085984	57	2	1	1							
23	"XORAZM TEX" MCHJ	302413758	1 063	1		1							
24	"JALOLADDIN MIRZO" FX	204550527	239	1		1							
25	"KUCHKOR" FX	200431795	142	1		1							
Jami			**6 637**	**60**	**13**	**37**	**0**	**7**	**0**	**1**	**0**	**0**	**2**

Xonqa tumani hokimining
2025-yil 27-oktabrdagi
312-12-175-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Korxona, muassasalar va tashkilotlarda ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2026-yilda ish joylarining eng kam miqdorini belgilash

T A R T I B I

№	Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar nomi	Xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni	Band qilib qo'yilgan ish o'rinlarining eng kam belgilangan miqdori	Ko'rsatilgan ish o'rnining kasbi va lavozimi
1	Xonqa tumani tibbiyot birlashmasi	2 602	5	shifokor, hamshira, sanitarka, qorovul, haydovchi
2	Xonqa tumani hokimligi huzuridagi obodonlashtirish boshqarmasi	295	3	mutaxassis, obodonlashtirish ishchisi, qabriston qorovuli, qabriston nazoratchisi
3	40-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
4	37-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	188	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
5	22-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	183	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
6	35-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	165	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
7	36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	150	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
8	38-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	139	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
9	10-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	139	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
10	19-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	126	3	o'qituvchi, farrosh, ishchi
11	41-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	125	3	o'qituvchi, farrosh,

				ishchi
12	13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	112	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
13	29-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	108	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
14	18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	104	2	o'qituvchi, farrosh, ishchi
15	35-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	90	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
16	21-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	76	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
17	7-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	74	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
18	24-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	71	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
19	50-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	64	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
20	38-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	62	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
21	32-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	60	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
22	39-son maktabgacha ta’lim tashkiloti	57	2	tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, hovli ishchisi, qorovul,
23	"XORAZM TEX" MCHJ	1 063	1	Ishchi
24	"JALOLADDIN MIRZO" FX	239	1	Ishchi
25	"KUCHKOR" FX	142	1	Ishchi
	jami	**6 637**	**60**	